

## KORRUPSIYA HAQIDA XABAR BERGAN SHAXSLARNI RAG'BATLANTIRISHNING AFZALLIKLARI VA MUAMMOLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15731947>

**Rustamova Elnora Asliddin qizi**

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirishning afzalliklari va muammolari haqida bayon etilgan. Ya'ni, jamiyatda ildiz otib borayotgan bu illatni yo'qotish shu jamiyatda yashayotgan shaxslarning burchidir. Shuningdek, xorijiy davlatlar misolida korrupsiyaga qarshi kurashish ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

### **Kalit so'zlar**

Korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyaviy jinoyatlar, asosiy qonunlar, hokimiyatni suiiste'mol qilish.

## **ПРЕИМУЩЕСТВА И ПРОБЛЕМЫ СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНФОРМАТОРОВ**

### **Абстракт**

В этой статье обсуждаются преимущества и проблемы стимулирования информаторов. То есть долг людей, живущих в этом обществе, - устраниТЬ это зло, которое укореняется в обществе. Также рассмотрим важность борьбы с коррупцией на примере зарубежных стран.

### **Ключевые слова**

Коррупция, конфликт интересов, коррупционные преступления, основные законы, злоупотребление властью.

### **Kirish<sup>34</sup>**

Hozirgi kunda korrupsiya butunjahon hamjamiyati davlatlarning ma'nnaviy yuksalishiga , siyosiy , iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan noqonuniy harakat ko'rinishida vujudga kelgan. Korrupsiya asosan davlat organlari va mansabdor shaxslarning o'z manfaatlari yo'lida xizmat mavqeidan

<sup>34</sup> <https://anticorruption.uz/uz>

<https://www.transparency.org/en/publications>

<https://oecd-public-integrity-indicators.org/>

<https://lex.uz/docs/-5193571>

noqonuniy tarzda foydalanishi o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishi, qonunlarni buzish, tanish-bilishchilik yoki ataylab o'zlariga va boshqalarga foyda yetkazishida ifodalangan. Taniqli shaxslar korrupsiya haqida o'z fikrlarini bayon etgan. Barak Obama fikricha, shaffof hukumat boshqaruvi va kuchli institutlar korrupsiyaga qarshi eng yaxshi quroldir, davlat boshqaruvi xalqning ishonchini oqlashi zarur. Mahatma Gandhi bu salbiy illatga qarshi kurashishni har bir inson o'zidan boshlashi kerak, agarda har birimiz halollikni o'z hayot tamoyilimizga aylantirsak, jamiyatda korrupsiya o'z-o'zidan yo'qoladi deb ta'kidlab o'tgan. Xalqaro tashkilotlar ham korrupsiya haqida o'z fikrlari haqida bayon etgan. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasida keltirilishicha, korrupsiya jamiyat poydevorini yemiradi, iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi deb bayon etilgan. Transparency International ushbu tashkilotning asosiy maqsadi, korrupsiyani kuzatish va unga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu tashkilot korrupsiyani qonun ustuvorligini buzuvchi eng asosiy tahdid va shu bilan birga demokratiyani zaiflashtiradi, iqtisodiy resurslarni noto'g'ri yo'naliшgа buradi deb hisoblagan. OECD tashkiloti korrupsiyani iqtisodiy o'sish uchun eng asosiy to'siq shuningdek, korrupsiya biznes muhitini zararli holatga keltiradi va molivaviy mablag'larni noto'g'ri ishlatadi deb ta'kidlagan. Xalqaro tashkilotlarning xulosalari shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashish galobal miqyosda muhim ahamiyatga ega. Ular davlatlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunlarni mustahkamlashga, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga va jamoatchilikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xabardorligini oshirishga chaqirgan.


Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 829-son qarori bilan tasdiqlangan "Korrupsiya oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi" to'g'risidagi nizomga muvofiq rag'batlantirish amalga oshirilgan. Ushbu nizom shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga yordam beradi, chunki u odamlarni korrupsiya holatlari haqida xabar berishga undaydi va shu bilan korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi. Bu jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Nizom korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarga bir martalik pul mukofoti, esdalik sovg'asi, ish joyini o'zgartirish imkoniyati va boshqa rag'batlarni taklif qiladi. Shuningdek, ushbu qonun hujjatida rag'batlantirish tartibi, rag'batlatlantirish qaysi organ tomonidan amalga oshirilishi va rag'batlantirish miqdorlari keltirib o'tilgan. Rag'batlantirish asosan respublika maxsus komissiyalari va ularning hududiy bo'limmalari tomonidan amalga oshiriladi.

### Rag'batlantirish miqdorlari ushbu jadval asosida keltirib o'tilgan:

	O'zlashtirilayotga n mulkning qiymati	Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyat uchun	Uncha og'ir bo'limgan jinoyat uchun	Og'ir jinoyat uchun	O'ta og'ir jinoyati uchun
Pora summasi yoki yetkazilgan zarar	BHM 30 baravari	BHM 5 baravari	BHM 30 baravari	BHM 5 baravari	BHM 15 baravari
Pora summasi yoki yetkazilgan zarar	BHM 30baravaridan 100 baravarigacha	BHM 10 baravari	BHM 15 baravari	BHM 20 baravari	BHM 25 baravari
Korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun	BHM 3 baravari				
Pora summasi yoki yetkazilgan zarar	BHM 100baravaridan ko'p bo'lsa	Ancha miqdor uchun mulkning 15%	Ko'p yoki juda ko'p miqdor 10%		

Hozirda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, BMT Taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi hamda Janubiy Koyeraning Korrupsiyaga qarshi kurashish va fuqarolik huquqlari bo'yicha komissiyasi hamkorligida Koreyaning "Clean portal" tajribasi "O'zbekistonda korrupsiya holatlari haqida xabar berishning samarali mexanizmini yaratish" loyihasini amalga oshirib kelmoqda. Tadqiqotda respondentlarning 74,0 foizi korrupsiya holatlari haqida xabar berishga tayyorligini bildirgan. Korrupsiya holatlari haqida xabar bermaslikning asosiy sabablari sifatida korrupsiyadan o'zlar manfaatdorligi (19,8%) va kimga murojaat qilishni bilmasligini (20,4%) qayd etgan. 13,8 foizi esa minnatdorchilik sifatida sovg'a berishni oddiy hol deb hisoblashini 7,4 foizi bunday harakatlarni korrupsiya holati deb ta'kidlagan.

Shuningdek, tadbirda "Clean Portal" platformasi asosida murojaatlarni qabul qilish bo'yicha markazlashtirilgan yagona elektron tizim ishlab chiqilib, hozirda ushbu tizimni ishga tushirish chorralari ko'rileyotgani qayd etilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi "IO-Pepoort" platformasi bilan birgalikda ijtimoiy so'rov o'tkazgan. So'rvonomadan asosiy ko'zlangan maqsad bu fuqarolarni korrupsiya holatlari bo'yicha prokuratura organlariga bergan murojaatlari haqida ma'lumot olish hisoblangan. So'rvonna natijalariga ko'ra yutuqlari asosida murojaatlarni qabul qilish bo'yicha markazlashtirilgan yagona elektron tizim ishlab chiqilib, hozirda ushbu tizimni ishga tushirish chorralari ko'rileyotganligi qayd etilgan.



- 4% ha murojaat qilganman
- 8% qayerga murojaat qilishni bilmaganman
- 12% yo'q , keyin o'sha tashkilotlar tinchlik bermaydi
- 40% yo'q, foydasi yo'q deb javob bergen.

Sórovnama natijalaridan ko'rinish turibdiki, fuqarolar davlat organlariga nisbatan juda past miqdorda ishonch bildirishgan bu esa, albatta, bu borada vakolatli bo'lган davlat organlaridagi xavfsizlik tizmi uncha rivojlanmaganligi va himoyalanmaganligini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashda xorijiy davlatlar tajribasi o'rganish bo'yicha aloqalar mavjud. Misol uchun, AQSHda ishlab chiqilgan dasturlar yordamida hukumat moliyaviy jinoyatlarni fosh etgan shaxslarga undirilgan mablag'ning 15-30 foizini mukofot sifatida beradi. Ushbu dasturlar tufayli 1986-yildan buyon 35 milliard AQSH dollari hukumatga qaytarilgan. AQSHda "Dodd-Frank Act va IRS Whistleblower Program" dasturi orqali xabar bergen shaxslar moliyaviy fribgarlik yoki soliq jinoyatlari bo'yicha undirilgan mablag'larning 10-30 foizigacha mukofot olishlari mumkin. 2012-yilda ushbu dastur orqali 14 milliard dollarlik soliq to'lovlarini qaytarishga yordam bergen shaxsga 104 million dollar mukofot berilgan. Ushbu tizimlar xalqaro miqyosdagi xabar beruvchilarni ham qamrab oladi va katta summalar bilan natijalar bermoqda. Janubiy Koreyada "Public Interest Whistleblower Act" bo'yicha xabar bergen shaxslarga mukofot pullari ajratiladi. Bu qunun birinchi yilda hukumatga 10 million AQSH dollari qaytarilishiga sabab bo'lgan. Braziliya korrupsiyani aniqlashda yordam bergen shaxslarga undirilgan mablag'ning 5 foizigacha mukofot taklif qiladi. Bundan tashqari, chet davlatlarda xabar bergen shaxslarni himoyalash bo'yicha ko'plab qonunlar ishlab chiqilgan. Singapurda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy qonun bu "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun" (Prevention of Corruption Act). Ushbu qonun korrupsiya holatlari haqida xabar bergen shaxslarni himoya qilish bo'yicha maxsus bo'limni

o'z ichiga oladi. Singapur Transparency International tashkiloti tomonidan tuzilgan "Korrupsiya qabul qilinishi indeksi" (Corruption Perceptions Index) bo'yicha yuqori o'rnlarda turadi. 2022-yilgi indeksda Singapur 83-ball korrupsiya darajasi juda past ekanligini ko'rsatadi. BMT korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha konvensiyasida korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni himoya qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Konvensiya davlatlarni korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni ishdan bo'shatishdan, qasos olishdan va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilishga chaqiradi.

Aloida ta'kidlab lozimki, korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirishning afzalliklari bilan bir qatorda muammolari ham mavjud. Afzalliklari quyidagilardan iborat: korrupsiyaga qarshi kurashni kuchaytiradi; xavflarnioshkor qilishni rag'batlantiradi; davlat resurslarining samaradorligini oshiradi; jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi. Muammolari esa quyidagilardan iborat: noto'g'ri xabar berish ehtimoli; xavfsizlik va maxfiylik masalalari; yetarli qonunchilikning yo'qligi; ijtimoiy stigma; mukofot tizimining murakkabligi.

**Xulosa.** Bizning yurtimizda amalga oshiriladigan davlat siyosatini yanada samaradorligini oshirish uchun:

birinchidan, korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni himoyalash ya'ni ularni shaxsiga doir ma'lumotlarini oshkor qilmaslik hamda ularni ishdan bo'shatishdan, qasos olishdan va boshqa salbiy oqibatlardan himoya qilish uchun zarur va yetarli "Korrupsiyaga oid huquqbazarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi" to'g'risda nizomda asosiy e'tibor rag'batlantirishga qaratilgan, biroq himoya mavjud emas shuning uchun bu borada yangi qonunchilik ishlab chiqilishi yanada korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini mustahkamlaydi;

ikkinchidan, bizning mamlakatimizda korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish miqdorinining oshirilishi ularni yanada faollashtirib ushbu sohadagi jinoyatlarning fosh etilishi ko'rsatkichlarini yanada oshiradi. Bunda AQSH tajribasini misol qilib olishimiz mumkin bu mamlakatda rag'batlantirish miqdori 10-30% tashkil etgan. Rag'batlantirish miqdori bizning mamlakatimizda o'zlashtirilayotgan mulkning 10-15 foizini tashkil etgan. Rag'batlantirish miqdorini 15-25 foizigacha oshirish lozim chunki bu o'zgarish yanada korrupsiyaga qarshi kurashish uchun yordam beradigan asosiy mexanizmlardan biri bo'ladi.

### **<sup>36</sup>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni

03.01.2017 -yildagi O'RQ-419-son

2. O'zbekistob Respublikasi "Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergen yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirish tartibi" to'g'risda Nizomi

31.12.2020 -yildagi O'RQ-829son

3. <http://anticorruption.uz>

4. <https://kun.uz>

5. <https://www.lex.uz>

---

<sup>36</sup> <https://www.unesco.org>